

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Special Issue | pp. 241-248 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

KON-GEOLOGIYA KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI



Xotamov Javohir Abdusharop o'g'li,
TDIU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: javohirxotamov1995@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada kon-geologiya korxonalarini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy va huquqiy asoslari tadqiq etilgan. Kon-geologiya korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalarini iqtisodiy va huquqiy asoslarini o'rgangan olimlarning tadqiqotlariga ilmiy jihatdan to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlarining ham kon-geologiya korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi tadqiqotlari o'rganilgan holda muallif qarashlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kon-geologiya, iqtisodiy xavfsizlik, xavf-xatarlar, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi iqtisodiy-huquqiy asoslar.

ЭКОНОМИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ГОРНО-ГЕОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Аннотация: В данной статье рассматриваются экономико-правовые основы обеспечения экономической безопасности горнодобывающих предприятий. Научно затронуты исследования ученых, изучавших экономико-правовые основы вопросов обеспечения экономической безопасности на горнодобывающих предприятиях. Также изучены исследования ученых стран СНГ по вопросам обеспечения экономической безопасности горно-геологических предприятий и разработаны рекомендации, основанные на взглядах автора.

Ключевые слова: горная геология, экономическая безопасность, риски, экономико-правовые основы обеспечения экономической безопасности.

ECONOMIC AND LEGAL FRAMEWORKS FOR ENSURING ECONOMIC SECURITY OF MINING AND GEOLOGICAL ENTERPRISES

Abstract: This article discusses the economic and legal foundations for ensuring the economic security of mining enterprises. The research of scientists who studied the economic and legal foundations of issues of ensuring economic security at mining enterprises is scientifically touched upon. The research of scientists from the CIS countries on issues of ensuring the economic security of mining and geological enterprises was also studied and recommendations were developed based on the views of the author.

Key words: *mining geology, economic security, risks, economic and legal framework for ensuring economic security.*

1. Kirish

Respublikamiz sanoatida kon-geologiya korxonalarini o'ziga xos o'ringa ega. Shu bois, sanoat tarmoqlarining asosiy yirik ishlab chiqaruvchi tarmoqlaridan biri bo'lgan kon-geologiya korxonalarini faoliyatini ustuvor darajada rivojlantirish hamda kon-geologiya korxonalarini faoliyati iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy va huquqiy asoslarini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz istiqloqligiga erishgan davrdan boshlab, mamlakat chegaralarini belgilash, milliy armiyani tashkil etish, barcha tabiiy resurslarni muhofaza qilish va qazib olish ishlarida iqtisodiy va huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Tadrijiy nuqta-nazardan o'tgan davrga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1991-yil 02-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati to'g'risida" gi 278-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror, respublikamizda xavfsizlik va davlat xavfsizligini tartibga soluvchi huquqiy poydevor bo'ldi [1].

Sanoatning kon-geologiya korxonalarida sodir bo'lish ehtimoli bo'lgan xavf-xatarlarni hisobga olib harakat choralari ko'rish, sanoatning kon-geologiya tarmoqlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarga javob beradigan darajada iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarni joriy maqsadga muvofiq.

2. Adabiyotlar sharhi

Qozog'istonlik olim A.A.Teplouxov tadqiqotlariga ko'ra, sanoat korxonalarining iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash birinchi galda inson omiliga bevosita bog'liqligini asoslagan holda aynan xavfsizlikni ta'minlash tizimini boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy konsepsiyasini ishlab chiqish muhimligi ta'kidlab o'tilgan. Shu bilan birga, olim bevosita o'z tadqiqotlarida aynan kon-geologiya korxonasi sifatida ko'mir qazib olish ob'ektlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda monitoring o'tkazish hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash algoritmini ishlab chiqish zaruriyatini asoslab bergan [2].

Tadqiqotchi tomonidan olib borilgan izlanishlar bevosita kon-geologiya korxonasi, xususan, ko'mir sanoati ob'ektlarida iqtisodiy xavfsizlik masalalariga urg'u bergan bo'lib, tadqiqotda asosan inson omiliga e'tibor qaratilgan. Biroq, bugungi kunda barcha tarmoq va sohalarda raqamli texnologiyalarning kirib kelishi, inson omilining rolini pasaytirishga intilmoqda. Shu jihatdan, aynan ko'mir sanoatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda monitoring olib borishda raqamli texnologiyalarni joriy qilinishi maqsadga muvofiq.

Rossiyalik olim A.V.Dadalko tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi strategik boshqaruv sifatida qaralib, iqtisodiy xavfsizlikning ta'minlanmasligi sanoat korxonalarining turg'unlik holatga olib kelishi, bu borada esa mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirishni talab etadi. Shuningdek, sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va turg'unlik holatidan chiqarishda davlat ko'magi zarurligi hamda davlat tomonidan tartibga solishga e'tibor qaratish muhimligi ta'kidlab o'tilgan. Har qanday turg'unlik yoki iqtisodiy tanazzul ro'y bergan vaziyatda sanoat korxonalarining iqtisodiy

xavfsizligini ta'minlash va yuzaga kelgan xavflardan himoyalaniş choralarini ko'rish muhim hisoblanadi [3].

Iqtisodiy xavfsizlikning asosiy vazifasi sifatida mamlakat ehtiyojlarini uzluksiz ta'minlash hisoblanishi, imkon qadar o'z-o'zini zaruriy mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlash bo'lsa, ikkinchidan, respublikamizda ishlab chiqarish mumkin bo'lmagan turli tovar va xizmatlarni chetdan maqbul narxlarda doimiy import qilishga qaratiladi.

Sanoat korxonalarini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash borasida nazariy jihatdan tadqiqotlar olib borgan O.A.Grunin va S.O.Gruninlar fikriga ko'ra, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash xo'jalik yurituvchi sub'ektning korporativ resurslardan eng samarali foydalanish asosida mavjud xavf-xatarlar, turli tahdid va boshqa ko'zda tutilmagan holatlarni bartaraf etish, ularni kuchsizlantirish va ulardan ximoyalanganlik holati bo'lib, korxonalar raqobat va turli tahdidlar sharoitida o'zining biznes maqsadlariga erishadi. Ushbu ta'rifda iqtisodiy xavfsizlikning mezonini biznes maqsadlariga erishish hamda tashqi omil sifatida raqobat tahlikali ekanligi va biznes maqsadiga erishishning sharti bevosita resurslardan samarali foydalanish ekanligi ta'kidlab o'tilgan [4].


3. Tahlil va natijalar

Respublikamizda kon-geologiya sanoati korxonalarini ishlab chiqarishida xavf-xatarlar va tahdidlar doimo sodir bo'ladi. Ushbu xavf-xatarlardan himoyalashning huquqiy asoslari borasida 2006-yil 28-sentyabrda O'RQ-57-sonli O'zbekiston Respublikasining "Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida" gi qonuni 23-moddani qamrab olgan holda qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining "Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida" gi qonuni bevosita korxonalarda sanoat xavfsizligi shaxs va jamiyat hayotiy muhim manfaatlarining xavfli ishlab chiqarish ob'ektlaridagi avariya va noxush hodisalardan hamda ularning oqibatlaridan himoyalanganlik holatidir. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlaridagi avariya inshootlar va xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarida qo'llaniladigan texnika qurilmalarining buzilishi, nazorat qilib bo'lmaydigan portlash va xavfli moddalar ajralib chiqishi kabi vaziyatlarda sodir bo'ladigan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan [5].

O'zbekiston Respublikasining "Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida" gi qonunining 6-moddasiga ko'ra mamlakatimizda sanoat xavfsizligi sohasini davlat tomonidan tartibga solishda bevosita O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, shuningdek, maxsus vakolatli davlat organlarini hamda qonunchilikka muvofiq sanoat xavfsizligi sohasida ayrim vakolatlarga ega bo'lgan boshqa davlat organlari tomonidan tartibga solinadi. 6-moddada belgilangan talablarga ko'ra sanoat xavfsizligi sohasida davlat tomonidan tartibga solish quyidagilardan iborat (1-rasm):

- sanoat xavfsizligi talablarini belgilash;
- sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati;
- xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarida qo'llaniladigan texnika qurilmalarini sertifikatlashtirish;
- faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash;
- sanoat xavfsizligi ekspertizasini o'tkazish;
- qonunchilikka muvofiq boshqa choralar.



1-rasm. Sanoatda xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining tasniflanishi [5]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi to'g'risida" gi 2019-yil 1-fevraldagi 75-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, mamlakatimizda sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi bevosita atom energetikasi va yadro texnologiyalari ob'ektlarida, shuningdek, xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarida sanoat xavfsizligi sohasida radiatsiya va yadro xavfsizligini ta'minlash sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishi va nazorat qilinishi uchun mas'ul bo'lgan vakolatli davlat boshqaruvi organi sifatida o'z faoliyatini boshladi.

Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining tarkibiy tuzilmasini: viloyatlar va Toshkent shahar hududiy boshqarmalar; Olmaliq kon-texnika inspeksiyasi; Angren kon-texnika inspeksiyasi; Qizilqum kon-texnika inspeksiyasi; Harbiylashtirilgan kon-qutqaruv qismi; «Sanoat xavfsizligi» DUK; «Kontexnazorato'quv» DUK; «Sanoat nazorati laboratoriyasi» DUK kabi o'z ish faoliyatini olib boradi.

Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi vazifalari qatorida kon-geologiya sanoat korxonalarini faoliyatini nazorat qilish bo'yicha o'ziga xos vazifalar belgilangan, xususan, kon sanoati nazoratida, atom energetikasi va ilmiy tadqiqotlarda ishlarni xavfsiz olib borish ustidan nazorat qilish sohasida xalqaro hamkorlik qilish, kon, portlatish ishlarini bajarish va rahbarlik qilish huquqiga tayyorlashni va o'qitishni tashkil etish, shaxtalarni bir toifadan boshqasiga o'tkazishni tasdiqlash, portlash va yong'in chiqishi xavfi bo'lgan nazorat ostidagi ishlab chiqarishlar va ob'ektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, ulardan

foydalanish va ularni ta'mirlashda o'zaro hamkorlik qilish va nazoratni amalga oshirish kabi vazifalar belgilab berilgan [6].

Kon-geologiya tarmoqlarini tubdan rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Geologiya, kon-metallurgiya va misni qayta ishlash sanoatini uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2021-yil 04-avgustdagi 498-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyundagi "Kon-metallurgiya sanoati va unga bog'liq sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-5159-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilindi.

"Geologiya, kon-metallurgiya va misni qayta ishlash sanoatini uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2021-yil 04-avgustdagi 498-sonli qarorga ko'ra, kon-metallurgiya sanoati mahsulotlari negizida ilg'or jahon amaliyoti asosida yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, unga bog'liq bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish hamda ushbu yo'nalishning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida Geologiya, kon-metallurgiya va misni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish Loyiha ofisini tashkil etish belgilandi [8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi tog'-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2024 yil 24-maydiga PQ-187-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini yo'lga qo'yish hamda kon-geologiya sohasida davlat nazoratini takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi [9].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi «Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-14-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida 2023-yil 27-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida tog'-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-116-sonli Farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko'ra, tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi muassasalarni qayta tashkil etish, tog'-kon sanoati va geologiya sohasida islohotlarni chuqurlashtirish, tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ni ishlab chiqish hamda tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi.

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi muassasalarni qayta tashkil etish orqali quyidagi tashkilotlar vazirlik tizimiga biriktirildi:

- Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi "Yer qa'ridan foydalanish markazi" davlat muassasasi;
- "Geologiya marksheyderlik xizmati" mas'uliyati cheklangan jamiyati;
- Geologiya fanlari universiteti huzuridagi "Tog'-kon va geologiya sohasi xodimlari malakasini oshirish instituti" davlat muassasasi.

1-jadval

2023-2025 yillarda mineral xom ashyo bazasini rivojlantirish dasturining
maqsadli ko'rsatkichlar dinamikasi [10]

T/r	Nomlanishi		O'lchov birligi	2023 - 2025 yillar	Shu jumladan:		
					2023 yil	2024 yil	2025 yil
1.	Oltin	zaxira	tonna	437	136	144	157
		resurs	tonna	630	205	210	215
1.1.	Geologiya-qidiruv tashkilotlari	<i>zaxira</i>	<i>tonna</i>	52	15	17	20
		<i>resurs</i>	<i>tonna</i>	381	125	126	130
1.2.	«Navoiy KMK» AJ	<i>zaxira</i>	<i>tonna</i>	357	112	118	127
		<i>resurs</i>	<i>tonna</i>	205	70	68	67
1.3.	«Olmaliq KMK» AJ	<i>zaxira</i>	<i>tonna</i>	28	9	9	10
		<i>resurs</i>	<i>tonna</i>	44	10	16	18
2.	Kumush	zaxira	tonna	545	175	180	190
		resurs	tonna	680	210	220	250
2.1.	Geologiya-qidiruv tashkilotlari	<i>zaxira</i>	<i>tonna</i>	390	120	130	140
		<i>resurs</i>	<i>tonna</i>	680	210	220	250
2.2.	«Olmaliq KMK» AJ	<i>zaxira</i>	<i>tonna</i>	155	55	50	50
3.	Uran	zaxira	tonna	17 300	5 500	5 700	6 100
		resurs	tonna	37 500	12 500	12 500	12 500
3.1.	«Navoiyuran» DK	<i>zaxira</i>	<i>tonna</i>	17 300	5 500	5 700	6 100
		<i>resurs</i>	<i>tonna</i>	37 500	12 500	12 500	12 500
4.	Mis	zaxira	ming tonna	775	255	250	270
		resurs	ming tonna	900	200	300	400
4.1.	Geologiya-qidiruv tashkilotlari	<i>zaxira</i>	<i>ming tonna</i>	625	210	200	215
		<i>resurs</i>	<i>ming tonna</i>	900	200	300	400
4.2.	«Olmaliq KMK» AJ	<i>zaxira</i>	<i>ming tonna</i>	150	45	50	55
5.	Qo'rg'oshin	zaxira	ming tonna	126	42	42	42
		resurs	ming tonna	168	56	56	56
5.1.	Geologiya-qidiruv tashkilotlari	<i>zaxira</i>	<i>ming tonna</i>	51	17	17	17
		<i>resurs</i>	<i>ming tonna</i>	168	56	56	56
5.2.	«Olmaliq KMK» AJ	<i>zaxira</i>	<i>ming tonna</i>	75	25	25	25
6.	Rux	zaxira	ming tonna	144	48	48	48
		resurs	ming tonna	170	55	55	60
6.1.	Geologiya-qidiruv tashkilotlari	<i>zaxira</i>	<i>ming tonna</i>	69	23	23	23
		<i>resurs</i>	<i>ming tonna</i>	170	55	55	60
6.2.	«Olmaliq KMK» AJ	<i>zaxira</i>	<i>ming tonna</i>	75	25	25	25
7.	Volfram	zaxira	ming tonna	25	8	8,5	8,5
		resurs	ming tonna	25	8	8,5	8,5
7.1.	Geologiya-qidiruv	<i>zaxira</i>	<i>ming tonna</i>	25	8	8,5	8,5

	<i>tashkilotlari</i>	<i>resurs</i>	<i>ming tonna</i>	25	8	8,5	8,5
8.	Litiy	zaxira	ming tonna	20	10	5	5
		resurs	ming tonna	30	10	10	10
8.1.	<i>Geologiya-qidiruv tashkilotlari</i>	<i>zaxira</i>	<i>ming tonna</i>	15	5	5	5
		<i>resurs</i>	<i>ming tonna</i>	12	3	4	5
9.	Ko'mir	zaxira	mln tonna	16,5	5	5,5	6
9.1.	<i>Geologiya-qidiruv tashkilotlari</i>	<i>zaxira</i>	<i>mln tonna</i>	16,5	5	5,5	6
10.	Er osti suvlari	zaxira	ming kub m	477	144	158	175
10.1.	«O'zbekgidrogeologiya» DM	<i>zaxira</i>	<i>ming kub m</i>	477	144	158	175
11.	Uglevodorod	resurs	mln t sh yo	181	58	61	62
11.1.	«O'zbekgeofizika» AJ	<i>resurs</i>	<i>mln t sh yo</i>	181	58	61	62

Izoh. Foydali qazilmalarning zaxira va resurs ko'rsatkichlariga yillik dasturlarni shakllantirishda aniqlik kiritiladi.

2023-2025 yillarda mineral xom ashyo bazasini rivojlantirish dasturining maqsadli ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan bo'lib, o'n bir turdagi foydali qazilmalarning zaxira va resurslarni qazib olish hajmlarining o'zgarish dinamikasi ko'rsatkichlari yillar kesimida Geologiya-qidiruv tashkilotlari xususan, "Navoiy KMK" AJ, "Olmaliq KMK" AJ, "Navoiyuran" DK hamda "O'zbekgidrogeologiya" DM korxonalarini tomonidan bajarilishi ko'zda tutilgan. Tahlillarga nazar tashlaydigan bo'lsak, mineral xom ashyo zahirasi bo'yicha 2023-2025 yillarda rejalashtirilgan uran xom ashyosi resurs hajmi 37500 tonnani tashkil etgan bo'lsa, zahira hajmi 17300 tonnani tashkil etmoqda. Qazib olish hajmi yillar davomida hajmi ortib bormoqda.

4. Xulosa va takliflar

Xulosa o'rnida aytish joizki, ilmiy izlanishlar natijasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash nafaqat ishlab chiqarish tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohalarini iqtisodiy jihatdan muhofaza qilishni balki, mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti uchun g'oyat muhim masalalardan biri sifatida tadqiqot ob'ekti bo'lib qoladi.

Kon-geologiya korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash asosida mamlakat aholisini tabiiy resurslarga bo'lgan ta'minotini kafolatlashga, aholi bandligini ta'minlashga, mamlakatning tashqi bozorda imidjini oshirishga va ustuvor rivojlanishiga imkon beradi.

5. Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг 1991-йил 02-ноябрдаги "Ўзбекистон Республикаси Миллий хавфсизлик хизмати тўғрисида" ги 278-сонли қарори. (Ҳужжат кучини йўқотган 22.02.2021). <https://lex.uz/uz/docs/1027996>

2. А.А.Теплоухов. Управление социально-экономической безопасностью предприятия: На примере угольной промышленности Республики Казахстан: диссертация кандидата экономических наук: 08.00.05.- Омск, 2006.- С. 152.

3. А.В.Дадалко. Стратегия обеспечения экономической безопасности предприятий депрессивных отраслей промышленности России: на примере лесного комплекса: диссертация кандидата экономических наук: 08.00.05 / Дадалко Александр Васильевич; [Место защиты: Финансовый ун-т при Правительстве РФ].- Москва, 2011.- С. 179.

4. О.А.Грунин, С.О.Грунин. Экономическая безопасность организации. СПб: Питер, 2002. С. 37-38.

5. Ўзбекистон Республикасининг “Хавфли ишлаб чиқариш объектларининг sanoat хавфсизлиги тўғрисида” ги Қонуни, 28.09.2006-йилдаги ЎРҚ-57-сон. <https://lex.uz/docs/1061181>

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori, 01.02.2019-yildagi 75-son. <https://lex.uz/docs/4169342>

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Geologiya, kon-metallurgiya va misni qayta ishlash sanoatini uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 04.08.2021-yildagi 498-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/5553516>

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Geologiya, kon-metallurgiya va misni qayta ishlash sanoatini uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 04.08.2021-yildagi 498-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/5553516>

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2024 yil 24-maydiga PQ-187-sonli qarori. <https://lex.uz/en/docs/6937324>

10. <https://lex.uz/uz/docs/6563120>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

